Iqlim o‘zgarishi

Uglerod izingizni qanday kamaytirish bo‘yicha maslahatlar

Uglerod izi - bu inson energiya resurslaridan foydalanish yoki xaridlarni amalga oshirish jarayonida keltirib chiqaradigan barcha issiqxona gazlarining umumiy tashlanmalari.
CO_2 (karbonat angidrid) - iqlim o‘zgarishiga ta’sir qiladigan asosiy issiqxona gazi.
U atmosferaga energiya ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan qazilma yoqilg‘i - neft, ko‘mir va tabiiy gazning yonishi natijasida chiqariladi. Bu shuni anglatadiki, kunlik energiya va resurslar iste’molini kamaytirish orqali siz CO_2 tashlanmalarini kamaytirishingiz va sayyoraga yordam berishingiz mumkin. Buni qay tarzda amalga oshirish mumkin?
Maslahatlarni o‘qing - ! **CO_2 TASHLANMALARINI KAMAYTIRISHDA ISHTIROK ETING!**

MAKTABGA BORISH YO‘LIDA, TA'TILDA VA SAYOHATLARDA

Ko‘proq piyoda va velosipedda yuring.

Jamoat transportidan foydalaning.

Boshqa shaharga sayohat qilganda, agar u juda uzoq bo‘lmasa, samolyotdan ko‘ra poyezdga ustunlik bering.

Uglerod izingizni kamaytiring!

CO_2ni Qisqartir! Qatnash! Asra!

MAKTABDA

Ushbu plakatni maktabingiz yoki uyingizning kirish qismiga osib qo‘ying. Bu maslahatlar to‘g‘risida do‘stlaringiz va tanishlaringizga ayting.

Iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashda ISHTIROK ETING!



UYDA ENERGIYANI TEJASH

Qishda elektr isitgichlardan foydalanmaslik uchun kvartirangiz yoki uyingizni issiqlikni saqlash maqsadida izolyatsiya qiling.

Uydan chiqib ketayotganingizda chiroqni o‘chiring.

Energiyani tejaydigan lampalardan foydalaning.

Foydalanilmayotganda mobil qurilmalarni quvvatlantirgichlarni elektr tarmog‘idan uzing.

Kompyuter, televizor va boshqa elektr jihozlaringizni kutish rejimida qoldirmang, yoqish/o‘chirish tugmalaridan foydalaning yoki elektr tarmog‘idan uzing.

Kiyimlaringizni past - 30-40 °C haroratda yuvishga harakat qiling.

Muzlatgichni ochishdan avval undan nimani olishni xohlayotganingizni o‘ylab oling.

Haqiqatan ham kerak bo‘lgan miqdordagi suvni qaynating.

Ovqat pishirayotganda, kastryulka yoki tovani qopqoq bilan yoping: bu energiyaning 2,5 baravar kam sarflanishini ta'minlaydi.

Uglerod izingizni KAMAYTIRING!

HAR KUN UCHUN MASLAHATLAR

Suv jo‘mragini mahkam yoping.

Buyumlarni avaylab ishlating, shunda ular uzoqroq xizmat qiladi.

Printerdan kamroq foydalaning, qog‘ozni tejang.

Chiqindilarni qayta ishlash va qayta ishlatish uchun saralang.

Qayta ishlangan materiallardan ishlab chiqarilgan yoki qayta ishlanishi mumkin bo‘lgan buyumlardan foydalaning.

Tabiat va resurslarni ASRANG!

DO‘KONDA

Ota-onangiz bilan birga do‘konga borayotganingizda:

• o‘z sumkangizni oling - bir marta ishlatiladigan qadoqlardan kamroq foydalaning;

• kam energiya sarflaydigan maishiy elektr jihozlarini sotib oling;

• tashish uchun kamroq energiya talab qiladigan mahalliy oziq-ovqat mahsulotlarini sotib oling.

Uglerod izingizni KAMAYTIRING!



IQLIM QUTICHASI

UNDP